

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

«Tasdiqlayman»

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

rektori _____ **O.SH.Bazarov**

« _____ » _____ **2022 y**

**DAVLAT KADASTRI OBYEKTлари TASNIFI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	300 000	-	Ishlab chiqarish va texnik soha
Ta’lim sohasi:	310 000	-	Muhandislik ishi
Ta’lim yo‘nalishlari:	5311500	-	“Geodeziya, kartografiya va kadastr”(qurilish)
	5311500	-	“Geodeziya, kartografiya va kadastr”(bino va inshootlar kadastr)

Qarshi – 2022

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: **G'.N.Aliqulov** – “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrası mudiri, q.h.f.n., dots.

Taqrizchilar: **K.Xujakeldiyev**– “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrası katta o'qituvchisi

SH.Niyazov - “O'zdaverloyiha” DILI
Qashvilyerloyiha bo'linmasi bosh muhandisi

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil _____ dagi «___» - sonli bayonnoma).

KIRISH

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limidagi o'rni

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirishda malakali kadrlarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Shu sababli "Geodeziya kartografiya va kadastr" (Bino va inshootlar kadastr) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga "Davlat kadastr obyektlari tasnifi" fani ham kiritilgan. Bu fan "Geodeziya kartografiya va kadastr" (Bino va inshootlar kadastr) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak bakalavrlarga Bino va inshootlar kadastr ta'lim yo'nalishi bo'yicha talluqli fanlardan bo'lib, davlat kadastrlari obyektlari bo'yicha ma'lumotlar berish va ularni talabalar ongiga yetkazishni nazarda tutadi. Mazkur fanni o'rganish davomida talabalar hozirgi paytda respublikamizda mavjud bo'lgan davlat kadastrlari obyektlari tasnifi bilan tanishadilar.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi- talabalarga Davlat kadastrlarini obyektlari to'g'risida tushuncha berish, yer, suv, o'rmon, ko'chmas mulk, shaharsozlik kadastrlari va boshqa kadastr turlari bo'yicha zaruriy ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

Fanning vazifasi- talabalarga "Davlat kadastr obyektlari tasnifi" fanining mohiyati, O'zbekiston Respublikasi hududida turli obyektlar kadastrlarini tuzishning mazmuni, ahamiyati va kadastrlarning turlari va uning xususiyatlarini o'rgatishdan iboratdir.

Fan bo'yicha magistrarning bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

"Davlat kadastr obyektlari tasnifi" fani bo'yicha talabalar qo'yidagi bilimlarga ega bo'lishlari zarur:

-davlat kadastrlarining yagona tizimi va uni shakllantirish to'g'risida umumiy ma'lumotlar hamda obyektlar kadastrlarini yuritish, xususan ularning huquqiy, texnik, texnologik va iqtisodiy qirralari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

-turli obyektlar kadastrlarini shakllantirish va yuritishning geodezik asoslarini, rivojlangan mamlakatlarda yuritilayotgan kadastr ishlarining tajribalarini, turli

obyektlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish, hisoblarini yuritish, shuningdek baholashni bilishi va ulardan foydalana olishi;

“Davlat kadastrı obyektlari tasnifi” fani o'qitishda talaba davlat kadastrlarining yagona tizimida mavjud kadastr turlarining o'rni va xususiyatini, mohiyati va ahamiyati, shuningdek ularni tekshirish, tadqiq qilish va takomillashtirish to'g'risida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“Davlat kadastrı obyektlari tasnifi” fani umummutaxassislik fani hisoblanib 5311500-Geodeziya, kartografiya va kadastr ta'lim yo'nalishining 7-semestrida o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan (Davlat kadastrı, Yer kadastrı, Yer huquqi) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining Davlat kadastrı obyektlari tasnifi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallari, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishlab chiqarishda mavjud holatlarning rasmlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy dasturlarida mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi.

Asosiy qism

1-Mavzu: Kirish. “Davlat kadastrı obyektlari tasnifi” to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

“Davlat kadastrı obyektlari tasnifi” fanining predmeti, vazifalari va ilmiy asoslari. Davlat kadastrı tushunchasi. Davlat kadastrlari yagona tizimi. Davlat kadastrlari yuritishning asosiy prinsiplari. Davlat kadastrlari obyektlari. Davlat kadastrlarini yuritishda davlat boshqaruvi. Davlat kadastrlarini yuritishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa

vakolatli organlar vakolatlari. Davlat kadastrlarini yuritishda qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlari hamda ularning mazmuni.

2-Mavzu: Davlat yer kadastri obyektlari tasnifi.

Davlat yer kadastri tushunchasi. Davlat kadastrlari yagona tizimida yer kadastrining o'рни va vazifasi. O'zbekiston respublikasida yer kadastrini yuritish. "Yer kodeksi" va "Davlat yer kadastri to'g'risidagi qonun" ning maqsadi va vazifalari. Yer toifalari. Qishloq xo'jaligi yerlari, aholi punktlarining yerlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar, tarixiy madaniy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar, o'rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari, zahira yerlar. Yer toifalari bo'yicha mavjud yer turlari tasnifi.

3-Mavzu: Bino va inshootlar davlat kadastri obyektlari.

Davlat kadastrlari yagona tizimida bino va inshootlar kadastrining o'рни va vazifasi. Binolarning inson hayot-faoliyati uchun zarur bo'lgan xonalarning mavjudligi bo'yicha tavsiflanishi. Binolarning maqsadli mohiyatiga qarab bo'lini: uy-joylar; jamoat binolari; tijorat; ishlab chiqarish vositalari joylashgan hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladigan sanoat(ishlab chiqarish) binolari; yordamchi – transformator joylashgan, nasoslar joylashgan binolar, ayvonlar va h.z.; qishloq xo'jaligi binolari va inshootlar va h.z.; omborlar.

Inshootlar turlari: injenerli-ko'priklar, platinalar, radiomachtalar; hajmli – barcha tur va mohiyatdagi binolar; maydonli –sport maydonchalari, filtrlash maydoni; chiziqli-yo'llar, elektr uzatish liniyalari, tashqi quvurlar; yer usti balandli-loyihalash nuqtasidan yuqori joylashgan, minora ko'rinishidagi inshootlar; yer usti-loyihalash nuqtasida joylashgan yo'llar, quvurlar; yer osti – loyihaviy nuqtadan pastda joylashgan yerto'lalar, xonalar; chuqurli – loyihaviy nuqtadan pastda joylashgan quduqlar.

Konstruktiv sxemalariga qarab bino va inshootlar bo'linishi: antiseysmik tadbirlarsiz qurilgan binolar; antiseysmik tadbirlar bilan qurilgan binolar.

Konstruktiv yechimlari bo'yicha bo'linishi: g'ishtdan yoki toshdan terilgan ushlab turuvchi devorli binolar; yaxlit betondan tiklangan ushlab turuvchi devorli binolar; yirik blokli binolar; yirik panelli binolar; karkasli binolar; hajmli-blokli binolar; yog'ochli binolar; g'isht-panelli binolar; mustahkamligi past materiallardan qurilgan binolar (tuproq materiallar).

Bino va inshootlarning konstruktiv elementlari va injenerli jihozlanishi bo'yicha tasniflanishi.

4-Mavzu: Foydali qazilma konlari, belgilari va texnogen hosilalar davlat kadastrida obyektlari tasnifi.

Davlat kadastrida foydali qazilmalar bo'yicha:

obyektning geografik va ma'muriy holati to'g'risidagi ma'lumotlar, asosiy va ular bilan birgalikda joylashgan foydali qazilmalarning miqdoriy, sifat tarkibi hamda ularda mavjud bo'lgan foydali va zararli komponentlar, konlarni qazishning geologik-iqtisodiy, kon-texnik, texnologik, gidrogeologik, ekologik va boshqa sharoitlari haqidagi ma'lumotlar bo'ladi.

Davlat kadastrida foydali qazilmalar nishonalari bo'yicha:

Nishonaning geografik va ma'muriy holati, uning geologik jihatdan o'rganilganlik darajasi, aniqlangan zahiralar miqdori va baholangan, prognoz qilingan resurslar to'g'risidagi ma'lumotlar, mineral xom ashyoning mumkin bo'lgan xossalari, shuningdek obyektning kelgusida o'rganish bo'yicha tavsiyanomalar bo'ladi.

Davlat kadastrida texnogen hosilalar obyektlari bo'yicha:

Texnogen hosilalar manbalari, ularning shakllanish davri, texnogen hosilalarining ularning miqdoriy-sifat ko'rsatkilari hamda ularni saqlash kon-texnik sharoitlari ko'rsatilgan holdagi turi yoki xili to'g'risidagi ma'lumotlar bo'ladi.

5-Mavzu: Davlat suv kadastrida obyektlari tasnifi.

Davlat suv kadastrida yagona davlat suv fondini tashkil etuvchi suv obyektlari, suv resurslari, suv rejimi, sifati va undan foydalanish haqidagi, shuningdek, suvdan

foydalanuvchilar to'g'risidagi tartibga solingan, doimiy to'ldirib boriladigan va zarurat bo'lganda aniqlashtiriladigan ma'lumotlar

6-Mavzu: Davlat o'rmon kadastrı obyektlari tasnifi.

Davlat o'rmon kadastrı obyektlariga taalluqli yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish vakolatli organlar tomonidan, ko'chmas mulkka huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibi

7-Mavzu: O'simlik dunyosi obyektlari davlat kadastrı obyektlari tasnifi.

Yovvoyi o'simliklar turlari tarkibi, soni, geografik tarqalishi, miqdoriy va sifat tavsifi, ulardan fodalanish, ularni iqtisodiy baholash, ular o'sadigan muhitning tavsifi

8-Mavzu: Hayvonot dunyosining davlat kadastrı obyektlari tasnifi.

Yovvoyi hayvonlar soni, ularning geografik tarqalishi, miqdoriy va sifat tavsiflari, ulardan foydalanish hamda ularni iqtisodiy baholash

9-Mavzu: Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrı obyektlari tasnifi.

Davlat qo'riqxonalari, kompleks (landshaft) zakazniklar, tabiiy bog'lar, davlat tabiat yodgorliklari, zakazniklari va tabiat pitomniklari, tabiiy kurort hududlari, dam olish hududlari, suvni muhofaza qilish zonaları va qirg'oqbo'yi polosaları, yer usti va yer osti suvlari hosil bo'ladigan hududlar (daryo vodiylari, surılma konusları, tog' etakları) baliqchilik xo'jaligi hududları, alohida tabiiy resurslarıni boshqarish uchun hududlar, davlat biosfera rezervatları hamda qonun hujjatları va xalqaro shartnomalar bilan muhofaza etiladigan toifaga kiritilgan boshqa tabiiy hududlar

10-Mavzu: Davlat shaharsozlik kadastrı obyektlari tasnifi.

Davlat shaharsozlik kadastrı obyektlari, ularning jug'rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda iqtisodiy bahosi

11-Mavzu: Gidrotexnika inshootlarining kadastrı obyektlari tasnifi.

Gidrotexnika inshootları kadastrı inshootning tabiiy shart-sharoitları, joylashgan o'ri, texnik, sifat va miqdor tavsifnomaları, xizmat qilish muddati, egasi to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlarıni tashkil etuvchi ma'lumotlar tizimi.

Mukammalligi I, II, III va mukammalligi III klassdan past bo'lgan boshqa gidrotexnika inshootlar

12-Mavzu: Energetika obyektlari davlat kadastrı tasnifi.

Faoliyat ko'rsatayotgan va qurilayotgan gidravlik hamda issiqlik elektr stansiyalari, o'z ichiga yordamchi stansiyalarni oladigan elektr tarmoqlari, "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida jamlangan havo va kabel liniyalari hamda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, texnologik jarayonning yaxlitligi vositasida energiya tizimi bilan bog'langan boshqa energiya obyektlari Energetika obyektlari davlat kadastrı obyektlari hisoblanadi

13-Mavzu: Chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrı obyektlari tasnifi.

Sanoat yoki maishiy chiqindilar poligonlari; xavfli chiqindilarni ko'mish joylari; chiqindixonalar, kul shlak tashlash joylari, foydalanib bo'lingandan keyin ko'mib tashlanadigan shlam to'plash joylari Chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari

14-Mavzu: Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrı obyektlari tasnifi.

Xavfli geologik jarayonlar ro'y beradigan zonalar; seysmik xavf yuqori bo'lgan zonalar; gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha

15-Mavzu: Aloqa obyektlari obyektlari tasnifi.

Shaharlararo, xalkaro telefon-telegraf stansiyalari; uzviy aloqa tarmoqlari; shahar telefon aloqa tarmoqlari; viloyat ahamiyatiga kirgan telefon-telegraf stansiyalari, hamda statsionar jihozlari va magistral aloqa yo'llari; telefon-telegraf stansiyalari, rayon telekommunikatsiya tarmoqlari, hamda statsionar jihozlar va qishloq yo'l maslamalari; radiorele aloqa yo'llarining stansiyalari va maoslamalari; sputnik aloqalarning stansiyalari; -qabul kilib berayotgan radiostansiyalar; radiotelevizion stansiyalari va retransiyatorlar; provodi uzatishning stansiyalari.

16-Mavzu: Transport quvirlarining davlat kadastrı obyektlari tasnifi.

Hamma turdagi magistral va lokal quvirlarining va ularning xizmat qilish obyektlarning ro'yxatiga olinishi, ularning soni va sifati ko'rsatkichlarini hisobga olish va iqtisodiy baholash

17-Mavzu: Davlat avtomobil yullari kadastrı obyektleri tasnifi:

Ko'priklar, tunnellar, asfalt beton zavodi, karerlar, maydalovchi sexlar, temir beton konstruksiya ishlab chiqaruvchi zavod, ta'mirlash zavodi, trest va qurilish boshqarmasi, avtokorxonalar, sotsial obyektlar, avtoyo'llar

18-Mavzu: Tarixiy va madaniy meros obyektlari kadastrı obyektlari tasnifi.

Tarixiy va madaniy yodgorliklar, ko'chmas tarixiy yodgorliklar, arxeologik, arxitekturali va monumenti asarlar

19-Mavzu: Boshqa kadastrı turlari obyektlari tasnifi.

Temir yo'llar davlat kadastrı obyektlari tasnifi, texnogen xavfi yuqori bo'lgan tegralar davlat kadastrı obyektlari tasnifi; kartografiya-geodeziya davlat kadastrı obyektlari tasnifi; hududlar davlat kadastrı obyektlari tasnifi:

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Har bir amaliy mashg'ulot dastlab ishning maqsadini va mavzuga oid nazariy bilimlarni qisqacha yoritishdan boshlanadi. So'ng ishni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun talab qilingan vazifalar aniq belgilanib, ishni bajarish tartibi esa qo'yilgan vazifalar ketma-ketligiga asoslanadi. Barcha ishlar olingan natijalarning tahlili bilan yakunlanadi. Har bir amaliy mashg'ulotni bajarish uchun berilgan ma'lumotlarga tayanib talabalarga alohida variantlarni ham taklif etish mumkin.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor o'qituvchilari tomonidan uslubiy ko'rsatma va loyihalash bo'yicha topshiriq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalarni loyihalashga bo'lgan ijodiy fikrlashga, g'oyaga erishish maqsadida tarqatma materiallardan foydalaniladi

Fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Yer turlari va atamaları to'g'risida tushunchlarga ega bo'lish
- ✓ Qishloq xo'jalik yer turlari bilan tanishish
- ✓ Turar joy binolari to'g'risida tushunchlarga ega bo'lish
- ✓ noturar joy binolari to'g'risida tushunchlarga ega bo'lish

- ✓ yakka tartibda qurilgan binolar to'g'risida tushunchalarga ega bo'lish
- ✓ Binolarning konstruktiv elementlari bilan tanishish
- ✓ Inshootlar va ularning turlari bilan tanishish
- ✓ O'simliklar xaritasi asosida madaniy va yovvoyi o'simliklar bilan tanishish
- ✓ Shahar va aholi punkt yerlarini maydonini mexanik usulda hisoblash;
- ✓ Shahar va aholi punkt yerlarini nisbati 1: 5000 syomka qilish uchun planshetlar hisobi;

- ✓ Yer uchastkasini ajratish. Ajratish usullari;
- ✓ Kadastr syomkasi uchun hujjatlarni rasmiylashtirish;
- ✓ Bino va inshootlarni qurilish hajmini aniqlash;
- ✓ Bino va inshootlarni texnik jihatdan o'rganish;
- ✓ Yer uchastkasini baholash haqida asosiy ma'lumot;
- ✓ Bino va inshootlarni baholash haqida ma'lumot;
- ✓ Shaharsozlik kadastrining asosiy elementlari;
- ✓ Raqamli xaritadan parcha chizish;
- ✓ Davlat kadastr yagona tizimini tuzish;
- ✓ Ko'chmas mulk pasportini tuzish;
- ✓ Davlat shaharsozlik kadastrini dasturlar bilan ta'minlash;
- ✓ Davlat shaharsozlik kadastrining idora qilish chizmasi;
- ✓ Shaharsozlik kadastrini boshqaruv;
- ✓ Elektron taxeometr yordamida kadastr ma'lumotlarini barpo etish;

Mustaqil ishlarni tashkil etish shakli va mazmuni

“Davlat kadastr obyektlari tasnifi” bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismidir.

Talabalar nafaqat auditoriya mashg'ulotarida professor – o'qituvchilarning ma'ruzasining tinglaydilar, balki amaliy mashg'ulotlarda o'quv jarayoniga taaluqlik misol va masalalar yechadilar. Talaba mustaqil ravishda darslarga tayyorlanadi, adabiyotlardan zarur ma'lumotlarni konspekt qiladi, ayrim mavzulardan referatlar tayyorlaydi, uyga vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi, testlarga tayyorlanadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Talabaga berilgan uyga vazifani bajarish, qo‘shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo‘llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to‘plash kabi mustaqil ishlar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulotolib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa m‘ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan belgilangan tartibga amalga oshiriladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ish mavzulari:

1. Yer turlari va atamalari
2. O‘zbekistondagi mavjud yer toiflari
3. Aholi punktlari yerlari toifasi
4. Shahar va qishloq aholi punkti yerlari
5. Bino va inshootlar klassifikatsiyasi
6. Ko‘p va kam qavatli uylar tasnifi
7. Yakka tartibda qurilgan uylar tasnifi
8. O‘zbekistonda davlat kadastrlarini yuritish borasida qabul qilingan qonun, qaror va farmonlar

Dasturning informatsion – metodik ta’minoti

Mazkur fanni o‘qitish jaryonida ta’limning quyidagi zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- Yer uchastkalari huquqi va yer kadastr sohasiga tegishli ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron –didaktik texnologiyalaridan foydalanish;

- yer uchastkalariga bo‘lgan mulkiy huquq va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi, o‘zga shaxslarga o‘tishi, cheklanishi va bekor qilinishini tasdiqlovchi hujjatlarni yer kadastrida qo‘llashning huquqiy tahlillari o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda aqliy, guruhli fikrlash va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

-yer uchastkalariga bo'lgan mulkiy huquq va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi, o'zga shaxslarga o'tishi, cheklanishi va bekor qilinishini tasdiqlovchi hujjatlarni yer kadastrida qo'llashning huquqiy tahlilini o'tkazish mashg'ulotlarida kichik guruhlar va indeksatsiya koeffitsientini aniqlashda kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. 3D Cadastre in an International Context, Jonatien E. Stoter and Peter van Oosterom 2006. CRC Press Taylor & Francis Group, New York.

2. Davlat kadastrlari. O'quv qo'llanma. Bobojonov A.R., Raxmonov Q.R. va boshqalar, T., TIMI.Cho'lpon nashryoti, 2008y. 237b.

3. Jo'raqulov O.D., G'.N. Aliqulov, Niyazov V.R. Yer uchastkasi va bino-inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yixatidan o'tkazish – Q.: SamDAQI, 2016. – 188 b.

4. «O'zbekiston Respublikasida Davlat kadastrlarining yagona tizimini yaratish bo'yicha Nizomni tasdiqlash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi. Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyuldagi 255-sonli Qarori, T., 1996y.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.-56 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, O'zbekiston, 2017.- 104b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. Toshkent, O'zbekiston, 2017.-48b.

8. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. T., O'zbekiston, 2017. «Gazeta.uz».

9. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi", T., «Adolat», 1999.

10. O‘zbekiston Respublikasining qonuni "Davlat kadastrlari to‘g‘risida", T., «Adolat», 2001.

11. O‘zbekiston Respublikasining qonuni «Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida»,T., «Adolat», 1999.

12. Yer kadastrlari asoslari. O‘quv qo‘llanma. Bobojonov A.R. va boshqalar. T., TESI, 1999.

Internet saytlari

13. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi.

14. www.Tsure.ru.

15. www.landkadast.com.

16. www.guz.ru.

